



Tasdiqlayman
Transport nazorati inspeksiyasi
boshligi

J.A.Karimov

**O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi
Transport nazorati inspeksiyasida o‘tkazilgan yig‘ilish**

B A Y O N I

Toshkent shahri

141-son

2024-yil 7-noyabr

Raislik qildi:

J.Karimov – Transport nazorati inspeksiyasi boshligi

Qatnashdilar:

Boshliq o‘rinbosari – boshqarma boshligi, bo‘lim boshliqlari, tarkibiy va hududiy bo‘linma mas’ul xodimlari (ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

**Transport nazorati inspeksiyasida temir yo‘l transporti va metropolitenda
nazorat yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilning o‘tgan 10 oyi davomida amalga
oshirilgan ishlar sarhisobi haqida**

(Karimov, Abduraxmanov, Axunjanov, Nurxojaev, Xojiboev, Bazarov, Seydgaliev, Kurbanazarov, Abdullayev, ..., Karimov)

**Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Transport nazorati inspeksiyasi
boshligi J.Karimov so‘zga chiqib,** Avvalo, Sizlarni - “O‘zbekiston temir yo‘llari”
aksiyadorlik jamiyatiga tashkil etilganligining 30 yilligi munosabati bilan chin dildan
muborakbod etdi.

Shuningdek, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish har bir mas’ul
xodimning ustuvor vazifasi ekanligi, kamchilikka yo‘l qo‘yayotgan mas’ul
xodimlarga choralar ko‘rilishi hamda har bir bajarilmagan topshiriqqa yo‘l qo‘yib
bo‘lmaydigan holat sifatida qaralishi lozimligi haqida gapirib otdi.

Temir yo‘l transportida temir yo‘l kesishmalarini Temir yo‘l kesishmalari
qoidalariga asosan qo‘riqlanmaydigan temir yo‘l kesishmasidan qo‘riqlanadigan
toifalarga o‘tkazish bo‘yicha yuborilgan xatlar, taqdimnomalarni ijrosini
ta’milanishini, shoxobcha temir yo‘llarda mavjud lebedkalarni o‘rnatilgan tartibda
foydalanishlarini, lebedkalar hujjatlari, mas’ul xodimlar biriktirganligi hamda
shoxobcha temir yo‘llarda tutib qoluvchi boshi berk temir yo‘llarni mavjudligi
ularning o‘rnatilgan talablarga javob berishi, shoxobcha yo‘llarga vagonlarni olib kirib
berish va olib chiqish manyovr ishlarida strelkali o‘tkazgichlarni boshi berk yo‘lga
to‘g‘rilab qo‘yilishini manyovr ishlari bajarish rahbarining lavozim yo‘riqnomalariga
kiritilishini alohida ta’kidlab o‘tdi.

**Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Boshliq o‘rinbosari A.Abduraxmanov
so‘zga chiqib,** sohada joriy yilning yanvar-sentabr oylarida temir yo‘l transporti va
metropolitenda nazorati yo‘nalishi bo‘yicha hisobot berdi. Jumladan, temir yo‘l
transporti va metropolitenda nazorati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi
normativ hujjatlari talablariga rioya etilishi yuzasidan belgilangan tartibda davlat

nazoratini ta'minlash, qurilish tugallangan temir yo'l obyektlarni foydalanishga qabul qilish komissiyalarining ishida ishtirok etish, qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishni tashkil etish borasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish, davlat inspektorlari tomonidan ish faoliyati davomida erishgan yutuqlari, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari hamda boshqa masalalar xususida gapirib o'tdi (*hisobot ilova qilinadi*).

Kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, yig'ilish **qaror qiladi**:

1. Boshliq o'rribbosari A.Abduraxmanov tomonidan 2024-yilning o'tgan 10 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bergen hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshliq o'rribbosari A.Abduraxmanov, hududiy bo'lim boshliqlari (Nurxojayev, Xojiboyev, Bazarov, Kalmuratov, Kurbonazarov):

Mashinistlar tomonidan qayd etilayotgan kamchiliklarni inobatga olgan holda, "Xavfli tahlil qilish" tizimiga orqali shoxobcha temir yo'llarini qisqa muddatda o'rganib chiqib tadbirdorlik subyekti faoliyatida tekshirishlar o'tkazilsin;

15-noyabrga qadar lebedkalarni davlat nazoratiga olish, nazorat qilishda vakolatli organi belgilash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin;

Harakatdagi temir yo'l tarkibi va infratuzilmasi obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha texnik reglamentga asosan kunlik bajarilgan ishlar, majud muammolar va bartaraf etish bo'yicha muhokamalar o'tkazilishi ta'minlasin.

3. AKTni joriy etish va axborot xavfsizligi bo'limi (Sh.Nabiiev) joriy yil 29-noyabrga qadar inspeksiya xodimlarining ishga kelib ketishi (davomat)ni nazorat qiluvchi elektron axborot tizimini ishlab chiqib, axborot bersin.

Bayonni yozdi



K.Norxodjaev